

ISSN:3060-4567 Modern education and development
**Geografiya fani o`qituvchilarini elektron ta`lim vositalaridan
foydalanishga tayyorligini shakillantirish mazmuni va texnologiyalari**

Abdurahmonova Dildora Bahodir qizi

Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti

Geografiya mutaxassisligi 2- bosqich magistranti

Toshmurotova Charos Rustamjanovna

Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti

Geografiya mutaxassisligi 2- bosqich magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada geografiya fani o`qituvchilarini electron ta`lim vositalaridan foydalanishi, geografiya darslarida yangi pedagogik texnologiyalarining qo`llanilishi, sifatli ta`limni shakillantirishda electron ta`lim vositalarning tutgan o`rni tahlil qilingan.

Kalit so`zlar: innovatsion o`qitish, electron ta`lim vositalari, yangi pedagogic texnologiyalar, multimedia va videodarslar.

Аннотация: в данной статье анализируется использование электронных образовательных средств учителями географии, использование новых педагогических технологий на уроках географии, роль электронных средств обучения в формировании качественного образования

Ключевые слова: инновационное обучение, электронные средства обучения, новые педагогические технологии, мультимедийные и видеоуроки.

Annotation: in this article, the use of electronic learning tools by geography teachers, the use of new pedagogical technologies in geography lessons, and the role of elektronik learning tools in the formation of quality education are analyzed.

Key words: innovative teaching, elektronik learning tools, new pedagogical technologies, multimedia and video lessons.

Geografiya bu yerning inson sayyorasi sifatida yaxlit ko`rinishini ta`minlaydigan fandir. U shuningdek umumiy madaniyat bilan birgalikda ekalogik madaniyatni shakillantiradi. Xalqaro aloqa tili bo`lgan geografik xaritalardan foydalanishni o`rgatadi. Jamiyat shiddat bilan taraqqiy etayotgan vaqtta geografiyaning vazifa chegaralari faqatgina yuqoridagilar bilan chegaralanib qolmayapti. Sir emaski geografiyani o`qitishning asosiy vositasi hozirgacha atlas bilan jihozlangan darslikdir. Ammo bugungi kunda o`quv materiallardan tashqari boshqa o`quv qo`llanmalar, elektron ta`lim vositalari, yangi dars o`tish o`tish metodlari qo`llanilmoqda. Bularga: multimediya ensiklopediyalari, mavzuga moslashtirilgan dasturiy majmular, elektron darsliklar, test dasturlari, mutimediyali taqdimotlar, GIS texnologiyalari.

Dars o`tish mobaynida yangi texnologiyalarni o`zlashtirish bilan o`qituvchining yangi pedagogik tafakkuri boshlanadi. Bu yangi texnologiyalardan foydalangan holda dars o`tgan geografiya o`qituvchisi yaxshi natijalarga erishib fanni o`qitish jarayoniga yangi nuqtayi nazar bilan qarashni shakillantiradi.

O`quv jarayonida geografiya ta`limini yangi ta`lim texnologiyalari bilan olib borishda interfaol usullardan elektron talim vositalaridan foydalangan holda dars o`tish keng yoyilib bormoqda. O`qitishning interfaol usuli yordamida o`quvchilar o`qish bilim olish jarayoniga to`la jalb etiladi. Ular o`zlari o`ylagan va bilgan barcha narsalar to`grisida erkin fikr yuritish imkoniyatga ega bo`ladilar. Bu ta`lim jarayonida o`quvchilar tanqidiy fikrlashni, yangi pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishni o`rganadilar.

Bundan tashqari pedagog darsni audio va video qo`llanmalardan foydalangan holda tashkil qilishi mumkin. Bunda o`qituvchi matnni o`rganishda izohlar berib turadi. Chizmalar rasmlar jadvallar kartalar alohida tushintiriladi. Dars so`ngida o`qituvchi kompyuter orqali savol berishi, o`quvchi kompyuter orqali javob berishi mumkin. Berilgan javoblar o`qituvchi tomonidan elektronniy baholanadi. Geografiya ta`limida kartalar sosiy o`quv vositalatidan biri hisoblanadi. Shu sababli kartalar bilan mustaqil ish bajarayotganda elektron kartalardan foydalanish maqsadga muofiq bo`ladi.

Geografiyani o`qitishda multimedya texnologiyalari asosida intellektual o`yinlar tashkil qilish o`quvchilarda tezkorlik ijodiy ishlash ko`nikmalarini shakillantiradi. Multimediyali tadimotlar axborot taqdim etishning zamonaviy shakli hisoblanadi. Geografiya darslarida bunday taqdimotlardan foydalanish o`quvchlarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirdi. O`quvchining individual faoliyat samaradorligini oshiradi. Shuningdek o`quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish axborotlshtirishning zamonaviy texnologiyalari va vositalarini ishlab chiqish va qo`llash bo`yicha yangi malakali mutaxassislarni tayyorlaydi.

Ma`lumki,`bugungi kunda ko`plabmatablarda o`qituvchilaimiz dars o`tishning yangicha va qiziqarli usullarini geografiya darslariga ham tatbiq qilishmoqda. Albatta ular bu jarayonda ananaviy usul hisoblangan maruza shaklidan voz kechib, bazi jarayonlarni kompyuterda amaliy bajartirishga o`quvchilar mavzuni tez va oson o`zlashtirishi uchun elektronniy mvzulashtirilgan testlardan foydalanilmoqda. Bundan tashqari mavzulashtirilgan ilovalar, elektron darsliklar, videodarslar tashkil qilinmoqda. Pedagog o`tmoqchi bo`lgan mavzusini endi faqatgina maruza shaklida emas, elektron ta`lim vositalarni qo`llagan holda dars o`tish imkoniyatiga ham ega bo`lmoqda.Yangicha dars o`tish usullaridan foydalanayotgan o`qituvchida esa darsni yanadan samarali olib borish uchun yangi metodlar paydo bo`lmoqda. Ammo bu quvonarli holat barcha maktablarda ham mavjud emas.Qilinayotgan ishlar, tatbiq etilayotgan yangiliklardan maqsad yurtimizdagi barcha maktablarda zamonaviy talablarga javob bera oladigan sifatli ta`limni tashkil qilishdir. Kirib kelayotgan yangi elektron texnologiyalarni joriy qilish, o`qitishning innovatsion usullarini joriy etgan holda elektron ta`lim vositalari asosida o`qitishning dasturiy ta`minotini yaratish bugungi kunda faqat geografiyaning emas balki barcha fanlarning oldida turgan asosiy vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.F.Hamroeva,D.X.Usmonova. Geografiyada multimedia texnologiyalari asosidagi interaktiv o`yinlardan foydalanish. Geografik tadqiqotlar:innovatsion

g`oyalar va rivojlanish istiqbollari. Xalqaro ilmiy amaliy konferensiya. Toshkent 2022.

- 2.Husanov I. Maktab geografiya darslarida noan`anaviy o`quv usullardan foydalanish.
- 3.Nazarov H, Yuldasheva D, Meliboyeva F.Maktabda geografiya ta`limini amalga oshirishda interaktiv usullardan foydalanish.
- 4.Rakhmatov,Dilmurod. Mobile technologies in the highr education syste.Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal 2021.